

**AXBOROT SHAXSNING MILLIY DUNYOQARASHINI
RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA****Ganiev Botir Muxitdinovich***Ichki ishlar vazirligi, Malaka oshirish
instituti katta o'qituvchisi, podpolkovnik*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shaxsga, jamiyat va davlatga qaratilgan nisbatan tahdidlarni xarakter jihatidan tabiiy va sun'iy guruhlariga ajratib, bunga asosan shaxsni jismoniy, ma'naviy va psixologik sog'liqligini ta'minlash nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaymiz. Chunki jamiyat va davlat xavfsizligining asosini shaxs xavfsizligining ta'minlanganligi tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Shaxs axborot-psixologik xavfsizlik, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini, axborot almashinuvi.

Inson uchun axborot – eng ta'sirchan vositadir, chunki uning ongi bor. Mantiqiy isbot, qolaversa, axborot etkazishning eng oddiy usullari shu qadar katta kuchga egaki, unga hech kim hech narsani qarshi qo'ya olmaydi. Shuning uchun targ'iboti haddan kuchli mamlakatning aholisi fanatiklarga o'xshaydi, masalan, Gitler davridagi nemis byurgerlari. Insonning tabiati shunday yaratilganki, u axborotni qabul qilmasdan, uni tushunishga harakat qilmasdan yasholmaydi.

Shaxs tomonidan axborotni qabul qilishning hal etuvchi mezon – bu insonning ongi borligidir. Mazkur ongdan foydalanib, mantiqiy isbot yordamida odamga xohlagan, eng noma'qul g'oyani ham “to'g'riligini” isbotlash mumkin, bu qiyin emas. Buning uchun dalillarni ustalik tanlab, isbot jarayonini yaxshi tuzish kifoya. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidning birinchi manbasi – bu insonning o'zidir.

Ichki tahdidlar sirasiga aholini axborot bilan ta'minlashning huquqiy va iqtisodiy asoslari yetarli emasligi, fuqarolik jamiyatining institutlari rivojlanmayotganligi va fuqarolarning davlat va nodavlat tashkilotlariga murojaatlari javobsiz qolib ketishi, axborot bozori qanday rivojlanishi davlat tomonidan nazorat qilinmasligi, fuqarolar davlat tuzilmalari faoliyati haqida yetarli axborot ololmasligi hamda yuqori tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qarorlar ularga tushuntirib berilmasligi va boshqlar kiradi.

Masalan, har bir inson hulqi, nuqtai nazari va pozitsiyasi turli axborot yordamida har xil boshqarilishi mumkin. Siyosatshunoslar yoki jurnalistlar bir voqeani, bitta fakti shunday talqin qila oladiki, undan keng auditoriya ijobiy yoki, teskarisi, salbiy xulosa chiqarishi odatiy hol bo'lib qolgan. Shunday ekan, axborot-psixologik xavfsizlik tahdidi tizimida faoliyat ko'rsatadigan o'zbekiston OAV ular uchun eng muhim omillar bo'lgan tezkorlik va haqiqatgo'ylik prinsiplari asosida ish olib borishlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston davlati dunyo hamjamiyatining teng vakili sifatida mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab turli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z oqilona siyosatini ishlab chiqdi va unga amal qilib kelmoqda.

Mamlakatimiz ichki va xalqaro miqyosidagi axborot almashinuvida o‘ziga xos va mos hamda boshqa mamlakatlarga zarar yetkazmaydigan davlat siyosatidan foydalanmoqda. Shuni ham aytish kerakki, shu siyosatga muvofiq ish olib borish barchaga: davlat tuzilmalari, OAV, jamoat tashkilotlari uchun, kolaversa, butun mamlakat uchun foyda berishi mukarrar. Ushbu siyosatdan cheklanish esa davlat miqyosidagi birlikka, hamjihatlikka putur yetkazadi.

Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlash ehtiyoji har bir davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanib, buning uchun mavjud barcha salohiyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi, dunyo manzarasining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy hamda madaniy sohalarining o‘zgarib borish jarayoni jadal davom etilayotganligi mazkur masalaga alohida e‘tibor qaratishni talab etadi. Shaxsga, jamiyat va davlatga qaratilgan nisbatan tahdidlarni xarakter jihatidan tabiiy va sun‘iy guruhlariga ajratib, bunga asosan shaxsni jismoniy, ma‘naviy va psixologik sog‘liqligini ta‘minlash nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaymiz. Chunki jamiyat va davlat xavfsizligining asosini shaxs xavfsizligining ta‘minlanganligi tashkil etadi.

Bugungi globallashuv davrida, axborot–psixologik xavfsizligining shaxsga ta‘sir etuvchi vosita va usullar mafkuraviy tahdidlar avj olgan bir davrda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta‘sir etmoqda. Chunki tashqi kuchlar tarbiyasini olgan yosh o‘sha kuchlar mafkurasiga berilib ketishi hech gapmas. Bugungi kunda dunyoning geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manzarisida chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa, axborot sohasi ham bundan mustasno emas, albatta. Globallashuv jarayonida axborot qudratli qurolga aylanishi natijasida inson ongini zabt etishga bo‘lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. O‘z navbatida, mafkuraviy-g‘oyaviy ta‘sir o‘tkazishda axborot asosiy omil vazifasini o‘tayotganligini ta‘kidlash o‘rinlidir. Hozirda, axborot vositasi yordamida insonlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta‘sir ko‘rsatishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Binobarin, har qanday axborot xurujlari bevosita axborot qurollari yordamida amalga oshirilayotganligini ta‘kidlash lozim. Bugungi kunga ayrim yetakchi davlatlar bevosita axborotdan vayronkor qurol sifatida foydalanishga intilmoqda. Globallashuv sharoitida, ayrim siyosiy kuchlar va markazlar axborot xuruji orqali yoshlar ongi va qalbiga yot g‘oyalarni singdirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. O‘z navbatida, axborot xuruji orqali yoshlar ongiga ta‘sir ko‘rsatish jarayonida avvalo, moddiy, ma‘naviy, ruhiy omillarga bevosita e‘tibor qaratiladi. Binobarin, noan‘naviy va noxolis usullaridan foydalanish zamirida siyosiy maqsadlarini amalga oshirish g‘oyasi yotadi. Bu juda ham tashvishli holat. Agarki shunday bo‘ladigan bo‘lsa, biz raqobatda mag‘lub bo‘lgan hisoblanamiz. Hozir oldimizga qo‘yilayotgan vazifa,

burch, ta'bir joiz bo'lsa, majburiyat esa bu mana shu raqobatda g'olib chiqish. Yoshlar ongini milliy g'oya asosida egallashdan iborat. Darhaqiqat, hozirgi davrga kelib dunyoning mafkuraviy manzarasi yanada murakkablashdi. Mafkuraviy kurashlar kundan kunga avj olayotir. Bu kurashda g'olib bo'lish uchun eng oson va tezkor yo'l ham tayyor. Ya'ni yirik axborot tarqatuvchi mavqeini egallash. Bugun butun danyoda "axborot urushi", "informatsion kurash" ketayotir. Buni kimdir payqaydi, kimdir bu masalaga nisbatan sovuqqonlik bilan qaraydi, loqayd. Kurash esa ochiq oydin bo'lmayapti. U turli aldanchi yo'llar bilan, nayrang va xiyla bilan olib borilmoqda. Masalan, kinofilmlar, ko'rsatuvlar, internet va OAV xabarlarini orqali bevosita insonlar ongiga biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi g'oyalar singdirilmoqda. Natijada esa bunday axborotlar milliy g'oyamizni singdirishga, yoshlarimizni o'z ona yurtiga daxldorlik ruhida tarbiyalashga salbiy ta'sir etmay qolmaydi.

Axborot bilan ishlash bir nechta asosiy bug'inlarni tashkil etadi, ularning ish mexanizmi esa quyidagidan iborat:

- 1) ma'lumotni qabul qilish, anglab olish va eslab quyish;
- 2) axborotni anglash va eslab quyish jarayonida materialni qabul qiluvchi tomonidan uning bilimi va psixologiyasidan kelib chiqqan holda qayta ishlash va yangilangan axborotni shaxs xotirasida saqlash;
- 3) axborotni tarqatish. har bir bosqichning o'z qoidalari bor va ularga rioya qilmagan odam ushbu faoliyatda inqirozga uchrashishi aniq. Zamonaviy bosqichda shaxsning axboriy-psixologik xavfsizligiga tahdidlarning ko'lami ancha keng. Bularning ichida asosiylar deb quyidagilarni keltirish mumkin.

Birinchi o'rinda shaxs qadr-qimmatini poymol qilmaslik, fikr va so'z erkinligi, adabiy, badiiy va ilmiy ijod erkinligi.

Ikkinchidan shaxsiy hayotning dahlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirni himoyasi.

Uchinchidan ommaviy axborot vositalari erkinligi, har bir kishi ularda qonun doirasida o'z fikrini ayta olishi. Mutaxassislarining kuzatuvlariga muvofiq, OAVda fuqarolar o'z fikrlarini erkin aytishlari davlat uchun xavfli emas, odamlar esa ularning so'zini boshqalar ham etishitishini xohlaydi va shunga intiladi.

To'rtinchidan – ma'naviy qadriyatlarga, xalqning urf-odatlariga, jamiyatning madaniy merosiga kimningdir tomonidan xujum qilinishi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki mafkuraviy kurashlar tinmayotgan hozirgi davrda diniy ekstremizm, terrorizm mafkuralariga qarshi kurash ma'naviy-ma'rifiy ishlarimiz kun tartibining birinchi masalasiga aylantirmog'iimiz lozim. Yoshlarning tafakkur tarbiyasiga ko'proq e'tibor qaratish ularning ma'naviy olami daxlsizligini ta'minlash yoshlarga chetdan turib ta'sir qilish imkoniyatlari shuncha kamaytirgan bo'lamiz.

Xulosa shuki, har bir shaxs mustaqil fikr yurita olmasa, har bir qalb o‘z nuridan munavvar bo‘lmasa, hech bir vatanda olamshumul yuksalish ham, o‘zgarish ham bo‘lmaydi. Vatan avomlik balosidan forig‘ bo‘lsagina qudratli yurtga aylanadi. Vatanda hech kimsa olomonning nomidan ish yuritmasa va olomondan tayanch axtarmasa-yurtimizning har bir go‘shasi ma’rifat va ma’naviyat, tafakkur va haqiqat nuriga burkanadi. Zero, millatning ulug‘ saodati va hurriyati ham shudir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017 y.
2. I.Karimov Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch. Toshkent.; Ma’naviyat, 2008.56-b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyuldagi “YOshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son farmoni.
4. Samarov R.S. Axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash mexanizmi. Toshkent 2015 y.
5. 3. Muminov A. O‘zbekiston axborotlashgan jamiyat sari. Toshkent. “Turon zamin ziyo” 2013 y.